



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№7(2)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 264 sahifa,
13-iyul, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woosyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oğlu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Bolalik davridagi autizmning turli shakllarini differensial tashxislash	10
<i>Saydaliyeva Xojiya Abduljalil qizi</i>	
Autizm spektri buzilishi bo'lgan bolalarda kommunikativ ko'nikmalarni shakllantirishda qo'llaniladigan korreksion ish tamoyillari	14
<i>Karimova Zulfiya Abduraxmanovna, Saydaliyeva Xojiya Abduljalil qizi</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarda axborot iste'mol madaniyatini rivojlantirishning psixologik-pedagogik asoslari	19
<i>Dadonova Aziza Tulkunovna</i>	
Ilk o'spirinlik yoshidagi o'quvchilarning o'z-o'ziga bo'lgan munosabatini psixologik tahlili	23
<i>Mamaradjabova Bog'zoda Abdilxakimovna, Panjiyeva Nargiza Botirovna</i>	
Oliy ta'lim tizimida muammoli o'qitish texnologiyasi	30
<i>Tuksanova Zilola Izatulloyevna</i>	
Shahar va qishloq yuqori sinf o'quvchilarida irodaviy sifatlarining qiyosiy tahlili	35
<i>Mamaradjabova Bog'zoda Abdilxakimovna, Panjiyeva Nargiza Botirovna</i>	
Organik kimyo ta'limida ochiq tipli STEAM loyihalarini loyihalashning didaktik modeli va uni amaliyotga joriy etish metodikasi	41
<i>Bo'riyev Rashidbek O'ktamjonovich</i>	
Kasbiy kompetentlikni oshirishda raqamli ta'lim vositalari va interaktiv metodlardan foydalanish	47
<i>Fazildjanova Nilufar Xikmatdjanovna</i>	
Tadbirkorlik faoliyatini innovatsion va ta'lim ekotizimidagi roli	50
<i>Mirzayeva Nigora Ibrohimjon qizi</i>	
Kasbiy ta'lim muassasalarida strategik boshqaruvni joriy etishning nazariy-metodologik asoslari	54
<i>Qobilov Voxidjon Zoxidovich</i>	
Психологические факторы мотивации личности в обучении иностранному языку	58
<i>Мухамеджанова Римма Рашидовна</i>	
Jadid ma'rifatparvarlarining boshlang'ich ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarda kitobxonlik fazilatlarini va madaniyatini shakllantirishdagi pedagogik tajribalari	66
<i>Ahmadov Olimjon Shodmonovich, Fayzilova Mohinur Azamhon qizi</i>	
Talabalarda kelajakni strategik modellashtirish layoqatini rivojlantirish bo'yicha ilg'or xorijiy va mahalliy tajribalarning qiyosiy-pedagogik tahlili	70
<i>Sadriddinova Feruza Meliyevna</i>	
Bo'lajak pedagoglarda kreativ fikrlashni rivojlantirishda fanlararo abstsessial va ordinal bog'liqlikka asoslangan metodik ta'minotni takomillashtirish	75
<i>Xudayberganov G'ayrat Quranboyevich</i>	
Maktablarda chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlikni isloh qilish: muammo va yechimlar	80
<i>Qudratov O'ktam G'ofurovich</i>	
Ustoz-shogird tizimida raqamli vositalardan foydalanishning metodik asoslari	85
<i>Tursunov Xusniddin Isomovich</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kommunikativ kompetensiyani shakllantirishda maktab va oila hamkorligining pedagogik imkoniyatlari	88
<i>Safarova Halovat Barnoyevna</i>	
Globallashtirish sharoitida tolerantlik madaniyatining nazariy-metodologik asoslari	91
<i>Yusupova Maftuna Ilxomidin qizi, Qurbonova Zebiniso Mamarajab qizi</i>	
Adobe After Effects muhitida inersiyaviy davomiylik va ustma-ust harakatni avtomatlashtirishning matematik modeli (Ziyoanim Overlap)	97
<i>Hakimov Bahtiyorjon Muzaffar o'g'li</i>	
Tizimli yondashuv asosida talabalarning raqamli kompetensiyasini takomillashtirishning uch komponentli konseptual modeli	101
<i>Kulidjanova Yulduzxon Inomjon qizi</i>	



The Theory of Fostering Students' Responsibility for Natural Resources and Waste in Karakalpak Folk Pedagogy.....	104
<i>Tursinbekova Qundizgul Joldasbekovna</i>	
Soft skills kompetensiyalarining ilmiy-pedagogik mohiyati va zaruriyati: soft skills tushunchasining evolyutsiyasi, asosiy komponentlari, turlari va tasnifi	109
<i>Igamberdiyeva Gulmira Botir qizi</i>	
O'zbek va ingliz tillarida "yolg'izlik" konseptining leksik-semantik xususiyatlari.....	115
<i>Sabina Saitmurodova Olim qizi</i>	
Bo'lajak pedagoglarni kasbiy tayyorlashda art-pedagogikaning imkoniyatlari.....	119
<i>Komolova Iroda Xamidullayevna</i>	
9-sinf iqtisodiy va ijtimoiy geografiya darslarida GIS texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik imkoniyatlari va uslubiy muammolari	123
<i>Sapayeva Gulbahor Odilbek qizi</i>	
Zamonaviy biologiya ta'limida interaktiv metodlarni qo'llashning nazariy jihatlarini	126
<i>Abdullayeva Guzalxan Vladimirovna</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini xalqaro baholash dasturlari bilan ishlashga tayyorlashning zarurati	130
<i>Berdimurodova Mexrubon Masudjonovna</i>	
Nutq nuqsoni bo'lgan o'quvchilarning ijtimoiy moslashuv jarayoniga ta'sir etuvchi omillar	136
<i>G'aniyeva Maloxat Odilovna</i>	
Ruh salomatlikni mustahkamlashda psixologik treninglarning ahamiyati	140
<i>Maqsuda Norbosheva, Nafisa Abduyeva</i>	
Xitoy tilini xalqaro miqyosda o'qitishning zamonaviy tendensiyalari.....	144
<i>Shasaidova Lola Shamaksudovna</i>	
Социально-экологический кризис в Южном Приаралье.....	149
<i>Сейтова З. П.</i>	
Iqtisodiy fanlar bo'yicha to'garak faoliyatini tashkil etishning nazariy-metodik asoslari.....	153
<i>Xusanboyeva Tursunoy Muxammadqasimjanovna</i>	
Motivational Readiness for Continuous Professional Development.....	162
<i>Okilova Kamola Sadulloevna</i>	
Raqamli ta'lim muhitida o'quvchilarda antisotsial xulq-atvorning oldini olishning pedagogik mexanizmlari ..	166
<i>Davronova Zarrina Baxtiyorovna</i>	
Yapon tilini o'qitishda らしい (rashii) evidentsiallik ko'rsatkichini o'rgatishning pedagogik xususiyatlari	173
<i>Musayeva Aziza Ibrohim qizi</i>	
Ta'lim tizimini rivojlantirishda pedagogik prognostikaning nazariy-metodologik asoslari va metodik imkoniyatlari.....	178
<i>Sharipova Shaxnoza Xasanovna</i>	
Qoraqalpoq nasrida inson psixologiyasi.....	183
<i>Dosbergenova Miyrigul Sadiratdinovna</i>	
Tibbiy ta'lim klasterida talaba markazlashgan muhitni shakllantirish: kredit-modul sharoitida intellektual adaptiv tyutorlik texnologiyasining pedagogik imkoniyatlari	188
<i>Ibragimova Venera Azadovna</i>	
Turli yosh davrlarida perfektsionizm va maqullanish motivatsiyasi o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganish.....	193
<i>Nazaraliyeva Marhabo Xayitboyevna</i>	
Frazeologik derivatsiyaning lingvomadaniy xususiyatlari	197
<i>Raxmonova Gavhar Nuritdinovna</i>	
Development of adolescent thinking and its psychodiagnostics and psychocorrection	202
<i>Samarova Shoxista Rabidjanovna</i>	
Jadid pedagogik konsepsiyasi va zamonaviy ta'lim tizimi integratsiyasi: tarixiy-pedagogik tahlil va amaliy yo'nalishlar	209
<i>Shamsullayeva Ruxsatoy Sunnatullayevna</i>	

Kredit-modul tizimi asosida kasbiy ta'lim tashkilotlari o'quvchilarini kasbiy kompetensiyalarini baholashning pedagogik mexanizmi	213
Shoyqulov Baxtiyor Bakirovich	
Modern Socio-Psychological Trends in the Study of Emotional Alienation	219
Yangibaeva Dildorakhon Rakhmon kizi	
O'quv-mashq guruhi futbolchilarining jismoniy tayyorgarligi.....	225
Xolmaxmatov Boburjon Musurmon o'g'li	
Sport ta'limida axborot bilan boyitilgan o'quv muhitini yaratish va vizualizatsiya vositalarining didaktik imkoniyatlari	230
Muxitdinova Nigora Mexridinovna	
Bo'lajak mutaxassislarda yangi avlod darsliklari bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlari	236
Abdujalilov Farruxbek Po'latjon o'g'li	
O'smirlarda deviant xulq-atvor shakllanishining psixologik xususiyatlari.....	239
Robiya Toshpo'latova Akmal qizi, X. A. Asqarova	
Aralash ta'limning pedagogik mohiyati va didaktik tamoyillari.....	244
Azerbayeva Elmira Muratbayevna	
Texnikaviy fanlarni o'qitish jarayonini tashkil qilish	248
Niyazova Bibiniso Boltayevna	
Estetik tarbiya va ruhiy go'zallik: san'at va adabiyotga muhabbat orqali shaxsdagi buzg'unchi xulq-atvorning oldini olish.....	253
Nigora Yo'ldasheva Sodiqjon qizi	
Raqamli texnologiyalar asosida bo'lajak qishloq xo'jaligi muhandislarini loyihalash-konstruksiyalash faoliyatiga tayyorlash metodikasini takomillashtirish	259
Xolmo'minova Shahnoza Gulyam qizi	

ARALASH TA'LIMNING PEDAGOGIK MOHIYATI VA DIDAKTIK TAMOYILLARI

Azerbayeva Elmira Muratbayevna

Nukus davlat pedagogika instituti doktoranti

Annotatsiya: Maqolada aralash ta'limning zamonaviy pedagogik jarayondagi o'rni, pedagogik mohiyati va asosiy didaktik tamoyillar bilan bog'liqligi tahlil qilinadi. An'anaviy, raqamli va masofaviy ta'lim elementlarini integratsiyalashga asoslangan aralash ta'lim modeli shaxsga yo'naltirilgan, mustaqil va kompetensiyaviy ta'limni tashkil etish vositasi sifatida ko'rib chiqiladi. Tadqiqotda ilmiy adabiyotlarni nazariy tahlil qilish, qiyosiy tahlil, tizimlashtirish va umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Natijalar aralash ta'limning o'quvchilar faolligi va mustaqilligini oshirish, individual ta'lim trayektoriyasini shakllantirish hamda raqamli, kommunikativ va tanqidiy fikrlash kompetensiyalarini rivojlantirish imkoniyatlarini ko'rsatdi. Shuningdek, aralash ta'limning ilmiylik, tizimlilik va izchillik, ongillik va faollik, ko'rgazmalilik, mustaqillik, individual yondashuv, nazariya va amaliyot birligi, uzluksizlik hamda refleksiya tamoyillari bilan uzviy bog'liqligi asoslandi.

Kalit so'zlar: aralash ta'lim, blended learning, pedagogik texnologiya, raqamli ta'lim, mustaqil ta'lim, didaktik tamoyillar, individual yondashuv, kompetensiya, refleksiya.

Abstract: The article analyzes the role of blended learning in the modern educational process, its pedagogical essence, and its relationship with the fundamental didactic principles. The blended learning model, based on the integration of traditional, digital, and distance learning elements, is considered a means of organizing learner-centered, independent, and competency-based education. The study employed theoretical analysis of scientific literature, comparative analysis, systematization, and generalization. The results demonstrated the potential of blended learning to enhance learners' engagement and autonomy, facilitate the development of individual learning trajectories, and foster digital and communication competencies, as well as critical thinking skills. Furthermore, the study substantiates the close relationship between blended learning and the didactic principles of scientific validity, systematicity and consistency, conscious and active learning, visualization, learner autonomy, individualized instruction, the integration of theory and practice, continuity, and reflection.

Key words: blended learning, pedagogical technology, digital learning, independent learning, didactic principles, individual approach, competence, reflection.

Аннотация: В статье анализируются роль смешанного обучения в современном педагогическом процессе, его педагогическая сущность и взаимосвязь с основными дидактическими принципами. Модель смешанного обучения, основанная на интеграции элементов традиционного, цифрового и дистанционного обучения, рассматривается как средство организации личностно ориентированного, самостоятельного и компетентностного обучения. В исследовании использованы методы теоретического анализа научной литературы, сравнительного анализа, систематизации и обобщения. Результаты показали возможности смешанного обучения в повышении активности и самостоятельности обучающихся, формировании индивидуальной образовательной траектории, а также развитии цифровых и коммуникативных компетенций, а также навыков критического мышления. Кроме того, обоснована тесная взаимосвязь смешанного обучения с принципами научности, систематичности и последовательности, сознательности и активности, наглядности, самостоятельности, индивидуального подхода, единства теории и практики, непрерывности и рефлексии.

Ключевые слова: смешанное обучение, blended learning, педагогическая технология, цифровое обучение, самостоятельное обучение, дидактические принципы, индивидуальный подход, компетенция, рефлексия.

KIRISH

Ta'lim jarayonining raqamli transformatsiyasi pedagogik faoliyatni tashkil etishning yangi shakl va usullarini rivojlantirishni taqozo etmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining o'quv jarayoniga jadal kirib kelishi an'anaviy auditoriya mashg'ulotlarini elektron va masofaviy ta'lim imkoniyatlari bilan uyg'unlashtirishga asoslangan pedagogik modellarni shakllantirdi. Shunday modellardan biri aralash ta'lim (blended learning)



bo'lib, u zamonaviy ta'lim tizimida keng qo'llanilayotgan innovatsion yondashuvlardan biri hisoblanadi. Aralash ta'limning mohiyati an'anaviy yuzma-yuz o'qitish bilan raqamli va masofaviy ta'lim elementlarini maqsadli integratsiyalashtirishdan iborat.

C. R. Graham va boshqa tadqiqotchilar aralash ta'limni bevosita o'qitish hamda onlayn ta'lim tajribalarining pedagogik jihatdan uyg'unlashtirilgan tizimi sifatida izohlaydilar [5, p. 11-12]. Bunday yondashuv o'quvchining individual ehtiyojlari, o'zlashtirish sur'ati va ta'limiy qiziqishlarini hisobga olish imkonini beradi. Mazmunning dolzarbligi shundaki, zamonaviy pedagogikada o'quvchini passiv axborot qabul qiluvchidan faol, mustaqil va refleksiv ta'lim subyektiga aylantirish masalasi ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Aralash ta'lim mazkur vazifani amalga oshirish uchun auditoriya mashg'ulotlari, elektron resurslar, videodarslar, testlar, virtual topshiriqlar va mustaqil loyiha faoliyatini yagona pedagogik tizimda birlashtiradi.

Tadqiqotning maqsadi aralash ta'limning pedagogik mohiyatini ochib berish, uning zamonaviy ta'lim jara-yonidagi funksional imkoniyatlarini aniqlash hamda asosiy didaktik tamoyillar bilan o'zaro bog'liqligini tizimli tahlil qilishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tadqiqot nazariy-tahliliy xarakterga ega bo'lib, aralash ta'lim muammosiga bag'ishlangan mahalliy va xorijiy ilmiy-pedagogik adabiyotlar tadqiqot materiali sifatida olindi. Xususan, D. N. Ashurovaning aralash ta'lim modellari haqidagi tadqiqoti [1], M. M. Avazmatovanning ta'lim tizimida blended learningning ahamiyatiga bag'ishlangan maqolasi [2], I. A. Nagaevaning aralash ta'limning tashkiliy-pedagogik imkoniyatlari bo'yicha qarashlari [3], A. K. Oreshinkaning innovatsion ta'lim texnologiyalariga oid yondashuvlari [4] hamda C. R. Graham, J. Borup, C. R. Short va L. Archambaultning aralash ta'lim konsepsiyasiga doir ilmiy-metodik ishlari [5] tahlil qilindi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida nazariy tahlil, qiyosiy tahlil, tizimlashtirish va umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Nazariy tahlil yordamida aralash ta'limning pedagogik mazmuni va funksiyalari aniqlandi. Qiyosiy tahlil an'anaviy hamda aralash ta'limda o'quvchi va o'qituvchi faoliyatining o'ziga xos jihatlarini solishtirishga xizmat qildi. Tizimlashtirish metodi asosida aralash ta'limning pedagogik imkoniyatlari va didaktik tamoyillari alohida yo'nalishlarga ajratildi. Umumlashtirish orqali mazkur modelning zamonaviy pedagogik jarayondagi ahamiyati yuzasidan ilmiy xulosalar shakllantirildi. Tahlil mezonlari sifatida o'quvchining ta'lim jarayonidagi subyektlik darajasi, mustaqil ta'lim imkoniyati, individual yondashuv, ta'lim samaradorligi, zamonaviy kompetensiyalarni rivojlantirish hamda didaktik tamoyillarning amalga oshirilish darajasi belgilandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ilmiy manbalarni tahlil qilish aralash ta'lim o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi pedagogik hamkorlikning mazmunini o'zgartirishini ko'rsatdi. Mazkur modelda o'quvchi tayyor bilimni qabul qiluvchi passiv tinglovchi emas, balki axborotni izlovchi, tahlil qiluvchi, taqqoslovchi va o'zlashtirilgan bilimni amaliyotda qo'llovchi faol subyekt sifatida ishtirok etadi. O'qituvchining vazifasi esa faqat axborot uzatish bilan cheklanmay, ta'lim jara-yonini loyihalash, yo'naltirish, motivatsiya berish, o'quv faoliyatini tahlil qilish va individual maslahat ko'rsatishni ham qamrab oladi. Tahlil natijasida aralash ta'limning pedagogik imkoniyatlari beshta asosiy yo'nalishda namoyon bo'lishi aniqlandi.

Birinchidan, u shaxsga yo'naltirilgan ta'lim modelini rivojlantiradi. Har bir o'quvchi o'zining bilim darajasi, imkoniyatlari va qiziqishlariga muvofiq ta'lim materiallari bilan ishlashi mumkin. O'zlashtirish sur'ati nisbatan past bo'lgan o'quvchi elektron material yoki videodarsni qayta ko'rib chiqadi, yuqori natija ko'rsatayotgan o'quvchi esa qo'shimcha va murakkab topshiriqlarni bajaradi. M. M. Avazmatova aralash ta'limning moslashuvchanligi o'rganuvchilarning motivatsiyasi va ta'limiy natijalariga ijobiy ta'sir ko'rsatishini qayd etadi [2, p. 507-511].

Ikkinchidan, aralash ta'lim mustaqil o'quv faoliyatini rivojlantiradi. Videodarslarni tomosha qilish, elektron darsliklardan foydalanish, onlayn testlarni bajarish, internet manbalarini tahlil qilish va loyihalar ustida ishlash o'quvchidan o'z faoliyatini mustaqil tashkil etishni talab qiladi. D. N. Ashurova ta'kidlaganidek, aralash ta'limda o'rganuvchi o'rganish usuli va sur'atini tanlash, vaqt hamda o'qish joyini boshqarish imkoniyatiga ega [1, 164-174-b.].

Uchinchidan, mazkur model ta'lim samaradorligini oshirish imkonini beradi. An'anaviy darsda vaqtning katta qismi yangi nazariy materialni tushuntirishga sarflanishi mumkin. Aralash ta'limda esa nazariy mazmunning muayyan qismi auditoriyadan tashqarida mustaqil o'rganiladi. Natijada auditoriya vaqti amaliy mashqlar, muammoli vaziyatlarni hal qilish, munozara va hamkorlikdagi faoliyatga yo'naltiriladi.

To'rtinchidan, individual va differensial ta'limni tashkil etish imkoniyati kengayadi. O'quvchilar bir xil materialni turli sur'at va usullarda o'zlashtirishi mumkin. Raqamli platformalar topshiriqlarning murakkablik darajasini differensiallashtirish, individual maslahat berish va o'quv natijalarini muntazam kuzatish imkonini yaratadi.

Beshinchidan, aralash ta'lim zamonaviy kompetensiyalarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Raqamli savodxonlik, axborot bilan ishlash, kommunikativlik, hamkorlik, ijodkorlik va tanqidiy fikrlash kabi ko'nikmalar elektron hamda auditoriya faoliyatining integratsiyasi jarayonida izchil shakllanadi.

Tadqiqot natijalari aralash ta'limning asosiy didaktik tamoyillar bilan bevosita bog'liqligini ham ko'rsatdi. Ilmiylik tamoyili elektron platformalar, ilmiy maqolalar, virtual tajribalar, laboratoriya materiallari va yangilanib boruvchi raqamli resurslardan foydalanish orqali amalga oshiriladi. Bu o'quvchining zamonaviy ilmiy axborot bilan ishlash imkoniyatini kengaytiradi. Tizimlilik va izchillik tamoyili o'quv faoliyatini mantiqiy ketma-ketlikda tashkil etishda namoyon bo'ladi. Masalan, nazariy videomaterialni o'rganish, taqdimot yoki elektron material bilan tanishish, test orqali dastlabki nazorat, auditoriyada amaliy faoliyat va yakuniy baholash yagona didaktik zanjirni hosil qiladi.

Onglilik va faollik tamoyili o'quvchining bilimni mustaqil izlash, tahlil qilish, taqqoslash va xulosa chiqarish faoliyati bilan bog'liq. Ko'rgazmalilik tamoyili esa videomateriallar, virtual laboratoriyalar, interaktiv taqdimotlar va animatsiyalardan foydalanish orqali kuchayadi. Multimedia kontenti murakkab hodisa va jarayonlarni vizual shaklda tushuntirishga yordam beradi. Mustaqillik tamoyili aralash ta'limning yetakchi xususiyatlaridan biridir. O'quvchi o'z vaqtini rejalashtiradi, topshiriqlarni bajarish ketma-ketligini boshqaradi va ayrim hollarda ta'lim sur'atini mustaqil belgilaydi [1, 164-174-b.]. Individual yondashuv tamoyili esa bilim darajasi va qiziqishlardan kelib chiqib turli murakkablikdagi topshiriqlarni taqdim etish hamda individual pedagogik yordam ko'rsatish orqali amalga oshiriladi.

Nazariya va amaliyot birligi tamoyili nazariy bilimlarni elektron muhitda o'rganish va ularni auditoriya mashg'ulotlarida amaliy vazifalar orqali qo'llash bilan ta'minlanadi. Elektron ta'lim texnologiyalari multimedia mazmunini o'rganuvchining ehtiyoj va imkoniyatlariga moslashtirish orqali pedagogik jarayonning moslashuvchanligini oshiradi [4, 4-7-b.].

Uzluksizlik tamoyili ta'limning auditoriya bilan cheklanmasligida namoyon bo'ladi. Elektron platformalar orqali o'quv faoliyati uyda, kutubxonada yoki boshqa qulay joyda davom ettirilishi mumkin. I. A. Nagaeva aralash ta'limning an'anaviy mashg'ulotlarda muntazam qatnashish imkoniyati cheklangan holatlarda ham ta'lim jarayonini davom ettirish imkonini kengaytirishini ko'rsatadi [3, 56-67-b.].

Refleksiya tamoyili o'quvchining o'z natijalarini baholashi, xatolarini aniqlashi va keyingi faoliyat rejasini belgilashi orqali amalga oshiriladi. Elektron testlar, tezkor qayta aloqa va o'z-o'zini baholash vositalari refleksiv hamda metakognitiv ko'nikmalarning shakllanishiga xizmat qiladi. Olingan natijalar aralash ta'limni faqat an'anaviy darsga raqamli vositalarni qo'shish sifatida talqin qilish yetarli emasligini ko'rsatadi. Uning pedagogik samaradorligi auditoriya va onlayn faoliyatning maqsadli, metodik jihatdan asoslangan integratsiyasiga bog'liq. Graham va hammualliflarning yondashuvida ham aralash ta'limning markaziy xususiyati texnologiyaning o'zi emas, balki yuzma-yuz va onlayn ta'lim tajribalarini o'quv maqsadlariga muvofiq birlashtirishdan iborat [5, p. 11-12].

Aralash ta'limning shaxsga yo'naltirilgan xususiyati o'quvchilarning individual farqlarini hisobga olish uchun muhim pedagogik sharoit yaratadi. Biroq o'quvchiga vaqt, sur'at va resurs tanlash imkoniyatining berilishi avtomatik ravishda yuqori natijani kafolatlamaydi. Bunday muhitda o'z-o'zini boshqarish, vaqtni rejalashtirish va ta'limiy mas'uliyat ko'nikmalari muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli o'qituvchi faoliyatining yo'naltiruvchi va maslahat beruvchi funksiyasi kuchayadi.

Tahlil qilingan manbalar [1]-[5] aralash ta'limning mustaqillik, moslashuvchanlik va individual yondashuv imkoniyatlarini umumiy jihatdan tasdiqlaydi. Shu bilan birga, didaktik tamoyillar nuqtayi nazaridan olib borilgan tizimlashtirish mazkur modelning pedagogik asoslarini yanada aniqroq ko'rsatadi. Ilmiylik, tizimlilik, faollik, ko'rgazmalilik va nazariya-amaliyot birligi alohida tamoyillar bo'lsa-da, aralash ta'lim muhitida ular o'zaro bog'langan holda amalga oshadi. Masalan, o'quvchining videomaterialni mustaqil o'rganishi bir vaqtning o'zida ko'rgazmalilik va mustaqillik tamoyillariga xizmat qiladi; auditoriyada muammoli vazifani bajarishi esa onglilik, faollik hamda nazariya va amaliyot birligini ta'minlaydi.

Elektron baholash va qayta aloqa vositalari tizimlilik, uzluksizlik va refleksiya tamoyillarini birlashtiradi. Demak, aralash ta'limning pedagogik qiymati alohida texnologik vositalarda emas, balki didaktik tamoyillarni integrativ tarzda amalga oshirish imkoniyatida namoyon bo'ladi. Shu jihatdan aralash ta'limni zamonaviy pedagogik jarayonning kompleks modeli sifatida baholash maqsadga muvofiq. Uning samarali joriy etilishi sifatli raqamli kontent, pedagogning raqamli va metodik kompetensiyasi, o'quvchilarning mustaqil ishlashga tayyorligi hamda muntazam qayta aloqa mexanizmlarining mavjudligini talab qiladi.



XULOSA

Tadqiqot natijalariga ko'ra, aralash ta'lim an'anaviy, raqamli va masofaviy ta'lim imkoniyatlarini pedagogik maqsad asosida integratsiyalovchi zamonaviy ta'lim modeli hisoblanadi. Uning pedagogik mohiyati o'quvchini faol ta'lim subyekti sifatida shakllantirish, mustaqil o'quv faoliyatini rivojlantirish, individual ta'lim trayektoriyasini qo'llab-quvvatlash va zamonaviy kompetensiyalarni rivojlantirish bilan belgilanadi. Aralash ta'limning pedagogik imkoniyatlari shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, mustaqil faoliyat, ta'lim samaradorligi, differensial yondashuv hamda raqamli, kommunikativ va tanqidiy fikrlash kompetensiyalarini rivojlantirish yo'nalishlarida namoyon bo'ladi.

Mazkur model ilmiylik, tizimlilik va izchillik, onglik va faollik, ko'rgazmalilik, mustaqillik, individual yondashuv, nazariya va amaliyot birligi, uzluksizlik hamda refleksiya kabi didaktik tamoyillar bilan uzviy bog'liq. Shunday qilib, aralash ta'limning samaradorligi texnologik vositalardan foydalanishning o'zi bilan emas, balki ularni pedagogik maqsadlar, didaktik tamoyillar va o'quvchilarning individual ehtiyojlari bilan uyg'unlashtirish darajasi bilan belgilanadi. Mazkur modelni metodik jihatdan to'g'ri tashkil etish ta'lim jarayonining moslashuvchanligi, uzluksizligi va natijadorligini oshirish uchun muhim imkoniyat yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ashurova D. N. Aralash ta'lim modellari // O'zbekistonda xorijiy tillar. - 2020. - № 4 (33). - B. 164-174. - URL: <https://journal.fledu.uz/uz/aralash-talim-blended-learning-konzeptual-va-t/> (murojaat sanasi: 15.07.2026).
2. Avazmatova M. M. Significance of Blended Learning in Education System // The American Journal of Social Science and Education Innovations. - 2020. - Vol. 2, Issue 8. - P. 507-511. - DOI: 10.37547/tajssei/Volume02Issue08-82.
3. Nagaeva I. A // Otechestvennaya i zarubezhnaya pedagogika. - 2016. - № 6 (33). - S. 56-67.
4. Oreshinka A. K. // Innovatsionnye obrazovatelnye tekhnologii. - 2014. - № 2 (38). - S. 4-7.
5. Graham C. R., Borup J., Short C. R., Archambault L. K-12 Blended Teaching: A Guide to Personalized Learning and Online Integration. - EdTech Books, 2019. - P. 11-12. - URL: <https://edtechbooks.org/k12blended>.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №7(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.